



OILAVIY MAROSIM QO'SHIQLARI ORQALI YOSHLARDA MA'NAVIY YAQINLIKNI SHAKLLANTIRISH.

Yusupova Ziyoda Baxtiyorovna

Nizomiy nomidagi TDPU

“Musiqqa ta’limi” yo’nalishi 2-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: **Yuldoshev Umidjon Yuldoshevich**

Nizomiy nomidagi TDPU

“Musiqqa madaniyati” fakul’teti dotsenti, PhD.

Annotatsiya: Mazkur maqolada maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan musiqqa mashg’ulotida musiqqa rahbarining maqom asarlarini o’rgatishga bolgan madaniy-estetik munosabati hamda tarbiyalanuvchilarining milliy musiqiy tafakkurini shakllantirishda maqom asarlarining tutgan o’rni, shuningdek, bolalarning maqom asarlarini o’rganish jarayoniga tayyorgarlik holati va ularning musiqiy bilimlari faoliyatida qobiliyatlarini faollashtirishning o’ziga xos xususiyatlari haqida so’z boradi.

Kalit so’zlar: Muchal to’yi, urf-odat, oila, ansambl, ma’naviy tarbiya, musiqiy-tafakkur, usul, improvizatsiya, folklor, qizlar majlisi, o’lanlar, milliy qadriyatlar.

Oilaviy marosimlarning turlari xilma-xildir. Marosimlar odamzodning umri mobaynida yo’ldosh bo’ladi. Ayniqsa, xalqimizda beshik to’yi, muchal to’yi, xatna to’yi, nikoh to’yi, motam marosimlari singari oilaviy marosim turlari bor. Bu marosimlar “oilaviy” deyilsa-da, lekin qarindosh – urug’lar, do’st – birodarlar ishtirok etganligi uchun ommaviy tus oladi.



Oilaviy an'analar va urf-odatlar nima uchun kerak? An'ana urf-odatlarga rioya qilishni keltirib chiqaradi va odatda oilaviy qadriyatlar deb ataladigan tushunchalarning paydo bo'lishiga yordam beradi. An'analar bolalarni tarbiyalash jarayonining ajralmas qismidir. Ularda doimiylik, birdamlik tuyg'usi shakllanadi, do'stlikka, o'zaro tushunishga o'rgatadi, oilaviy rishtalar qanchalik mustahkam ekanligini ko'rsatadi. Agar sizning oilangizda ijtimoiy birlikka xos bo'lgan ba'zi maxsus an'analar hali tug'ilmagan bo'lsa, buni tuzatish uchun hech qachon kech emas.

- Oila kengashini yig'ing va aniq nima va qanday an'anaga aylanishi kerakligini aniqlang. Har kim o'z istaklarini bildirsin, keyin murosaga kelsin.

- Eng muhimi yangi tashkil etilgan an'ananing birinchi timsoli bo'ladi. Har bir narsani qilish kerakki, bu barcha oila a'zolariga albatta zavq keltirsin va keyingi safar ular buni intiqlik bilan kutishadi.

- Keyin bu faqat vaqt va yangi tug'ilgan qoidalarga rioya qilishning aniqligi masalasi. [6].

Oila va oilaviy an'analar farzand tarbiyasining asosidir. Zero, bola aynan oilada odamlar bilan muloqot qilishning ilk tajribasini oladi, insoniy munosabatlarning ko'p qirraliligini anglaydi, ma'naviy, axloqiy, aqliy va jismoniy jihatdan kamol topadi. Har bir uyda avtomatik ravishda amalga oshiriladigan o'ziga xos qoidalar va odatlar mavjud. Oila an'analari va urf-odatlari jamiyat bilan normal munosabatda bo'lishga, oilani jipslashtirishga, oilaviy rishtalarni mustahkamlashga, o'zaro tushunishni yaxshilashga va janjallarni kamaytirishga yordam beradi. Oilaviy tarbiya an'analari mavjud bo'lgan va e'zozlangan oila davralarida bolalar ota-onalarning fikrini tinglaydilar, ota-onalar esa farzandlarining muammolariga e'tibor berib, ularni yengishda yordam beradilar.

Oilaviy marosimlarda musiqa muhim o'rin tutadi. Bunda ham aytim, ham



cholg`u musiqasi so`ngisi metam marosimi uchun istisnodir qo`llanib ularning badiy vazifalari o`zaro farqlidir. Jumladan to`y marosimlarida karnay, sunray, nog`ora va doiralardan iborat cholg`u ansambili ishtirok etib, u bir vaqtning o`ziga ham badiy tinglov, ham axborot vositasini bajaradi. Chunki bu ansambl ijrosidagi jozibali kuy – navolar ko`tarinki kayfiyat tug`diradi, xamda raqs o`yinlariga chorlaydi va unga jo`r bo`ladi. Aytim vositasida esa o`zgacha bo`lgan, lekin muhim vazifa amalga oshiriladiki shu boisdan asosiy diqqat – etiborni shu jihatga qaratamiz. Demak, aytimlar vositasida xar bir marosimlarning maqsadi yuzaga chiqqa boshlaydi, boshqacha aytganda, oilaviy marosim aytimlarida shaxsiy va “ommaviy” tuyg`ular mushtarak etilgan bo`ladi va shuning bilan alohida ahamiyatga molik. Shu bois birinchi galda yig`i aytimini tafsiflab o`tish maqsadga muofiqdir. [1.].

Yig`i – turli vaziyatlatda yuzaga kelishi mumkin bo`lsa-da, lekin uning janr sifatida xozir bo`lishi asosan oilaviy marosim, xususan motam marosim – ozoda to`liq amalga oshiriladi. [7.].

Motam marosimi folklori. Motam marosimi folklorining katta qismini yig`i va yo`qlovlar tashkil etadi. Yig`ilar, odatda, dafn marosimi kunidan boshlab to “uch” yoki “yeti” marosimigacha azadorlar yoki maxsus yollangan yig`ichi (go`yanda yoki nahvagar) tomonidan azaxonaga ta`ziya bildirib kelganlar oldida yig`i bilan ritual ijro qilinadi. Yig`i matnlari qat`iy turg`unlikka ega bo`lmaydi. Ular, odatda, bir martalik ijroga moslashgan. Sababi, yig`ilar mavjud holatdan kelib chiqib, badihatan kuylanadi. Yig`ilarga xos situativlik va improvizatsion sajiya ular ijrosiga yetarli ta`sir ko`rsatadi. Yig`ichi an`anaviy yig`ilarni ijro etar ekan, uning qaysidir misrasini yoki so`zlarini tushirib qoldirishi, o`zgartirishi yoki an`anaviy misralar yordamida yangi yig`i matnlarini yaratishi mumkin. Shu tariqa yig`ilarda variantlashish hodisasi ham kuzatiladi. Yig`ilar tarkibida, albatta, yig`ini ifoda



etuvchi “voy-voy-ey”, “voy-dod-ey” kabi undov so‘zlar hamda yig‘ining kimga kim tomonidan qaratilganligini bildirib turuvchi undalmalar mavjud bo‘ladi va ular yorqin ko‘zga tashlanib turadi.yuritiladi. [2.].

To‘y marosimi folklori. To‘y dunyoning barcha xalqlariga xos marosimdir. “To‘y” atamasi “to‘ymoq”, “el-yurtga ziyofat bermoq” ma’nolari orqali muayyan kishi hayotidagi muhim burilish nuqtasini anglatadi. Binobarin, to‘y ham moddiy, ham ma’naviy oziqlanish marosimidir. O‘zbek to‘y marosimlari nikoh to‘ylari bilangina chegaralanib qolmay, balki xatna (sunnat), beshik to‘yi kabilardan ham tashkil topgandir. Bu marosimlar turli munosabatlar bilan o‘tkazilganligi tufayli ularda ijro etiladigan folklor janrlari ham xilma-xillik kasb etadi. [3.].

O‘zbek to‘y marosimlari sirasida nikoh to‘ylari rasm-rusmlarga, irim-sirimlarga boyligi, folklor materialining rang-barangligi bilan alohida ajralib turadi. Bunday rang-baranglik hamda ko‘tarinki rux marosimning maqsad va vazifasi bilan inson o‘z hayotining yangi davriga qadam qo‘yishini alohida quvonch orqali nishonlashi bilan bog‘liqdir. Haqiqatan ham, nikoh to‘yi yigit va qizlar hayotida ro‘y beradigan eng baxtli, eng unutilmas marosim sanaladi. Chunki mana shu marosimdan so‘ng ular xayotga boshqacha ko‘z bilan, ya’ni ham jismonan, ham ma’nan kamolotga erishgan kishilar ko‘zi bilan qaraydilar.

O‘zbek nikoh to‘ylarining birinchi bosqichiga o‘lan folklor janrlari mansubdir. O‘lan asosan o‘tmishda ko‘chmanchilik va yarim ko‘chmanchilik tarzida hayot kechirgan o‘zbek urug‘lari o‘rtasida keng tarqalgan bo‘lib, u qiz uzatar oqshomidan bir yoki bir necha kun ilgari qizning uyida o‘tkaziladigan “qiz oqshomi”, “qizlar majlisi” kabi turli nomlar bilan nishonlanadigan tantanada ijro etilgan. O‘lan shahar hamda qadimdan o‘troq tarzda hayot kechiruvchi aholi o‘rtasida uchramaydi. Ayrim hollarda qiz uzatar kechasi kuyovning uyida o‘tkaziladigan bazmlarda ham o‘lan ijro etilishi mumkin. [4.].



Xulosa qiladigan bo`lsak, yigitlar bilan qizlar orasida hozirjavoblik bilan aytishuv tarzida aytilgan, fikrga fikrni she`riy yo`l bilan ulab ketish o`lan janrining yetakchi xususiyati hisoblanadi. O`lanlar yoshlarni badiiy-estetik didli, xush hulqli, kamtarin, ochiq ko`ngilli, do`stga sadoqat ruhida tarbiya qilishda muhimdir vosita hisoblanadi. An`anaviy tarafdin xalqimizning to`y hashamlarda to`ygacha, to`y va undan so`ng bajariladigan qadriyatlar bir necha asrlar mobaynida ajdodlarimizdan meros bo`lib kelayotgan urf-odatlarini kelasi naslga kam-ko`stsiz yetkazish bizning vazifamizdir

Diyorimizda istiqlol shabadalari esa boshlagan ilk onlardanoq elimizning madaniy-ma`naviy merosiga, milliy qadriyatlariga chuqur e`tibor qaratila boshladi. Dunyodagi barcha mamlakatlarda bayramlar bisyor, lekin mustaqillik, istiqlol, ozodlik sabab Vatanimiz o`z xalqining, o`z millatining taqdiriga ega bo`ldi. Mustaqillik bayramining ahamiyatini so`z bilan tariflash mushkul. Uni har birimiz yuragimizdan his etishimiz kerak. Sababi mustaqillik bayrami xalqimiz uchun eng muhim bayramdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://mavzular.uz/referatlar/oilaviy-marosim-qoshiqlarini-organishning-mazmuni>
2. https://majmua.tdpu.uz/files_new/99107_zbek%20folklori.docx
3. T. Mirzayev. O`zbek folklori. Toshkent 2020. 59-bet
4. Madaniyat va san`at jurnali. 1-jild 5-son. Toshkent Nashr etuvchi Sunnatullayev 2023. 44-bet .
5. Yuldoshev, U. Y. (2021). PEDAGOGICAL-PSYCHOLOGICAL APPROACHES TO THE PROFESSIONAL PREPARATION OF THE FUTURE MUSIC TEACHER. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF



PEDAGOGICS, 2(10), 56-61.

6. Yuldoshev, U. (2023). EFFECTIVENESS OF SPIRITUAL AND ETHICAL EDUCATION OF STUDENTS THROUGH CULTURAL AND ARTISTIC EVENTS. *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(12), 342-345.

7. Юлдошев, У. Ю. (2019). Мусиқа уқитувчиси мутахассислигининг замонавий модели ва профессиограммаси. *Современное образование (Узбекистан)*, (9 (82)), 47-53.

8. Юлдошев, У. Ю. (2017). Эксклюзивные свойства педагогической технологии в преподавании музыки. *Молодой ученый*, (22), 207-209.

9. Юлдошев, У. Ю. (2020). РОЛЬ АРТИКУЛЯЦИИ В ПРОЦЕССЕ ИЗУЧЕНИЕ МАКОМА. In *АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ СОВРЕМЕННОЙ НАУКИ И ОБРАЗОВАНИЯ* (pp. 87-89).

10. Yuldoshev, U. (2018). Problems of Choosing Methods and Technologies in Musical Pedagogics. *Eastern European Scientific Journal*, (2).

11. Юлдошев, У. Ю. (2024). ОЛИЙ ПЕДАГОГИК МУСИҚА ТАЪЛИМИ ТИЗИМИДА МАҚОМ САНЪАТИ МАСАЛАСИ. *Ta'limda raqamli texnologiyalarni tadbiiq etishning zamonaviy tendensiyalari va rivojlanish omillari*, 30(2), 133-139.

12. Sheraliyevna, S. D., & Yuldoshevich, Y. U. (2024). LEVEL OF VOCAL SINGING PERFORMANCE OF SPECIALIZED SCHOOL STUDENTS WITH DISABILITIES. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 42(3), 141-146.

13. Yuldoshevich, Y. U. (2024). ТА'ЛИМ СИФАТИНИ ТА'MINLASHDA OCHIQ DARSLARNING O'RNI. *Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi*, 5(1), 223-226.